

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «V» kurs
talabasi Yusupova Nodiraning

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

fanidan

«Qadimgi turkiy adabiyot va folklor»

mavzusida tayyorlagan

K U R S I S H I

NUKUS – 2015

MUNDARIJA

1. KIRISH
2. QADIMGI VA ILK KLASSIK DAVR TURKIY ADABIYOT
BILAN TURKIY EPOSLAR O`RTASIDAGI ALOQALAR
3. QADIMIY TURKIY ADABIYOTDA JANRLARNING PAYDO
BO`LISHI VA TARAQKIYOTI
4. XULOSA
5. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Fol`klor va yozma adabiyot munosabati xususida so`z ketganda, individual ijodiy jarayonda kollektiv ijod namunalaridan foydalanish e`tirof etiladi.

Yozma adabiyot va fol`klor munosabati, yozma adabiyotda fol`klor an`analari adabiyotshunoslarning diqqatini jalb qilishi tabiiy hol. Har ikki sistemaning o`zaro aloqasi adabiyotning ilk bosqichida alohida o`ziga xos xususiyatga ega. Adabiy jarayonning yuzaga kelishi, undagi milliylik, xalqchilik fol`klorsiz bo`lmaydi. Bu yo`nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy metod eng qulay va maqsadga muvofiqdir. Agar turkiy tili adabiyot, jumladan, o`zbek adabiyotini ko`zdan kechiradigan bo`lsak, fol`klor an`analari har bir davr adabiyotida, xususan, har bir ijodkorda, alohida, o`ziga xos shaklda namoyon bo`ladi. Ba`zan ijodkor asarga xalq og`zaki ijodini turli afsona, rivoyat va boshqa janrlarni olib kiradi, ba`zan afsona va rivoyatlar yozma adabiyotga manba bo`ladi. Ana shu tariqa yozma adabiyotning bosqichlari shakllanadi. Shuning uchun ham qadimgi turkiy adabiyotdagi fol`klor an`analarini belgilashda keyingi davr adabiyotidagi shu xususiyat nuqtai nazaridan qarab bo`lmaydi. Qadimgi turkiy adabiyotida fol`klor an`analari degan tushuncha nisbiydir, ko`proq yozma adabiyot va fol`klor munosabatlari xususida gapirish o`rinlidir. Chunki mualliflar bevosita turkiy eposlarga tayangan holda yozma adabiyot yaratdilar. Shunday bo`lsa-da, keyingi davr adabiyotidagi ertak, afsona yoki boshqa fol`klor janrlari bo`rtib ko`rinmaydi, balki sinkretik holda uchraydi. Fol`klorning barcha janrlari yodnomalarga singdirilgan. Modomiki, so`z qadimgi turkiy yodnomalar va turkiy eposlar munosabati xususida ketar ekan, bir savol tug`iladi: qadimgi turk davridan birorta ham folk`lor namunalari etib kelmagan bo`lsa, qadimgi turkiy adabiyot bilan turkiy eposlar munosabati xususida so`z yuritib bo`ladimi? Bunday mulohazalarga quyidagicha javob beramiz:

1. Hozirgi davr adabiyotida fol`klor va yozma adabiyot bir-biriga bog`liq bo`lmagan ikki sistema bo`lsa, turkiy adabiyotning ilk davrida bir-biridan ajratib bo`lmaydigan yaxlit sistemadir.

2. Adabiy jarayonning qadimgi turk davridagi holati fol`klor va yozma adabiyot estetik printsiplarining bir-biriga uyg`unligi bilan harakterlanadi. Har ikki sistemaning qadimgi turk davrida yaxlit namoyon bo`lishi yozma adabiyotning bir necha manbalarni o`zida mujassamlantirgan turini namoyon qiladi. Bunda tarixiylik, mifologiya, fol`klorizm nazarda tutiladi. Obrazli qilib aytganda, yodnomalar o`ziga xos mozaikani eslatadi.

Boshqa xalqlarning qadimgi davr adabiyoti yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va chiqarilgan ilmiy xulosalar va qadimgi turkiy adabiyot va turkiy eposlar munosabatini o`rganish uchun manba bo`ldi. Jumladan, qadimgi rus adabiyoti bilan bu davrdagi xalq og`zaki ijodi munosabatlari va boshqa xalqlarning qadimgi davr adabiyoti bilan fol`klori munosabati xususidagi tadqiqotlarga nazariy manba sifatida yondashdik. Masalan: D.S.Lixachev XI asrdagi rus xalq poetik ijodi haqida so`z yuritar ekan, yozma adabiyotga fol`klorning ta`siri kuchli ekanligini ta`kidlaydi hamda XI asr va undan keyingi davrlardagi xalq og`zaki ijodi haqida hukm chiqarish uchun yozma adabiyotdagi qoldiqlarga suyanib ish ko`ra olish mumkinligini ta`kidlaydi.¹

Ishda quyidagi qisqartmalardan foydalanildi:

Ktu – Kul tigin ulug` yodnomasi.

Ktk – Kul tigin kichik yodnomasi.

Bx – Bilga hoqon yodnomasi.

Ib – Irq bitigi.

To`n – To`nyuquq yodnomasi.

Qisqartmalardan so`ng shu yodnomaning misrasi ko`rsatildi. Oyo – Oltin yoruq dostoni. Ba`zan esa «Oltin yoruq» deb yuqorida ta`kidlangan bo`lsa, matndan so`ng qavsda shu dostonning sahifasi ko`rsatildi, xolos.

ePT – eniseyskaya pis`mennost` tyurkov. Bu S.e. malovning asari bo`lib, enisey yodnomalaridan misollar shu asardan olindi. enisey yodnomalarining nomini ko`rsatmasdan, shu asarni va uning sahifasini ilova qilish bilan cheklandik.

¹ Д.С.Лихачев. Человек в литературе Древней руси. М.,1970.

«Dada Qo`rqut kitobi» (Anqara, 1986, nashrga tayyorlovchi Muharram Erkin) dan olingan misblardan so`ng faqat sahifalargina ko`rsatildi, xolos.

QADIMGI VA ILK KLASSIK DAVR TURKIY ADABIYOT BILAN TURKIY EPOSLAR O`RTASIDAGI ALOQALAR

Qadimgi turkiy adabiyotning genezisi

Avvalo biz sistemalararo aloqa degan tushunchani aniqlab olaylik. Buning uchun terminning mohiyatidan kelib chiqamiz. Sistema - qismlardan tashkil topgan butunlik. Aslida yozma adabiyot ham o`zi yaxlit bir sistema. Undagi obrazlar, syujet, badiiy tasvir vositalari bir butun holda sistema hosil qiladi. Turkiy eposlar ham xuddi shu tartibda sistema hosil qiladi. Turkiy eposlar ham xuddi shu tartibda sistema hosil qiladi. Yozma adabiyot bilan eposlar o`rtasidagi sistemaro aloqa degan tushuncha har ikki sistemadagi mavjud syujetlar, obrazlar, badiiy tasvir vositalarining bir-biriga o`tishini anglatadi.

Qadimgi va ilk klassik turkiy adabiyotida mazkur aloqaning yuz berishida o`ziga xosliklar bor. Qadimgi turkiy yodnomalar bevosita eposlar zaminida o`sib chiqqan. Har ikki manba – yodnomalar va eposlar bir sistema holiga kelgan. Demak, eposlardagi syujetlar, badiiy tasvir vositalari yodnomalarning yuzaga kelishida birinchi omil. Ammo turkiy eposlarni, garchi qadimgi turkiy adabiyotga manba bo`lgan bo`lsa-da, qadimgi turkiy yodnomalarning tuzilishini belgilovchi yakkayu yagona vosita deb qaramaslik kerak. Eposlar yodnomalar uchun murakkab adabiy sintez komponentlaridan biri bo`lib xizmat qiladi. Adabiy sintez yodnomalarning butun tarkibida bor. Jumladan, epitetlar va ularning turlarini olib ko`raylik. Yodnomalarda asosan doimiy epitetlar (bilga, alp, аныгъ, ыдуq, yabyz, bangu va h.k.) qo`llangan. Mazkur epitetlar yozma adabiyot (yodnomalar)niki emas, balki faqat eposlarga xos bo`lgan epitetlardir. Mazkur epitetlarning vazifasi yodnomalarda, bir tomondan, ko`tarinkilikni hosil qilish, ikkinchi tomondan esa, ideal qahramonlar obraziga asos solishdir. Agar doimiy epitetlar yodnomalarga kiritilmaganda, romantik ko`tarinkilik hosil bo`lmagan va yodnomalarning yozma adabiyot sifatidagi muhim bir qirradi ochilmagan, ideal qahramon obraziga asos solinmagan bo`lar edi. Har ikki sistemaning sinkretikligi bu o`rinda muhim ahamiyat kasb etgan. Ba`zi misollarga murojaat qilaylik:

Bilga qag`an armis, alp qag`an armis, buyruqı yama bilga armis arinch, alp armis arinch, bag`lari yama, bodunı yama tuz armis (Ktu, 3) - Dono hoqon ekan, bahodir hoqon ekan, buyruqlari ham dono ekan, shekilli, bahodir ekan shekilli, beklari ham, xalqi ham to`g`ri ekan. Biligsiz qag`an olurmıs arinch, yab拉克 qag`an olurmıs arinch, buyruqı yama biligsiz arinch, yablaq armis arinch (Ktu,5) – Bilimsiz hoqon o`tirgan ekan, yomon hoqon o`tirgan ekan, buyruqi ham bilimsiz ekan, shekilli, yomon ekan, shekilli.

Yuqoridagi epitetlarnig muhim vazifalaridan biri ideallashgan hoqon obraziga asos solishdir. Ideallashgan obraz – eposlarga xos, lekin yodnomalardagi hoqonlar tarixiy shaxslardir. Yana bu jarayonda sistemalarning (yozma adabiyot va epos) sinkretikligi tufayli obrazlar yaxlitlik kasb etganligini ko`ramiz.

Yodnomalarning yozma adabiyot sifatida shakllanishidagi yana bir omil – ijtimoiy-tarixiy sharoitdir. U ham fol`klor – adabiy sintez asosida yodnomalardan o`rin oladi.

Qadimgi turk davrigacha bo`lgan epos elementlarining yodnomalarda aks etganligi (epitetlardan tashqari jonsiz predmetlar – er suvni muqaddaslashtirish, umuman kosmik jismlarning hammasini jonli deb qarash, toponimlarga tayangan tasavvur va afsonalar) yozma adabiyotgacha bo`lgan adabiyot haqida ma`lum xulosa chiqarishga imkon beradi.

D.S.Lixachyov fol`klor barcha janrlarining yozma adabiyotga manba bo`lishi haqida to`xtalib, sinfsiz jamiyatdagi kul`t elementlari sinfiy jamiyatdagi adabiyotga o`z ta`sirini o`tkazganda, xuddi eposlardagi qahramonlar singari sifatlarga ega bo`lishini alohida ta`kidlaydi. Bu jarayon, har bir xalq adabiyotida bir kechadi, yozma adabiyotga tadrijiy ravishda o`sib o`tishi va unga ta`siri ham deyarli bir xil. Bu davrgacha (asosan, afsonalarda) turli sifatlarni (donolik, bahodirlik) o`zida mujassamlantirgan qahramonlar yuzaga keldi, ya`ni sinfsiz jamiyatdagi kul`t elementlari ham yodnomalarga o`z ta`sirini ko`rsatdi. Bu qahramonlik sifatlarni yuzaga chiqarish uchun janrlar o`z embrional holatidan chiqdi, imkoniyatlarini kengaytirdi, g`oyaviy-badiiy jihatdan takomillashdi. Ana shu jarayon – yangi qaxramonlik sifatlarining paydo bo`lishi ham qadimgi turkiy yodnomalarning

qahramonlik dostonlari ruhida yaratilishiga sabab bo`ldi va epos vazifasini ham, yozma adabiyot vazifasini ham bajaraverdi. Yodnomalarning funktsiyasiga ko`ra sinkretikligi uning fol`klor-adabiy sintezi tufayli paydo bo`ldi.

Yodnomalarning bayon qilish texnikasi ham shunga yo`naltirilgan. I.V.Stebleva bayon qilish texnikasi haqida to`xtalib, Kul tigin kichik va ulug` yodnomasining kompozitsiyasini tahlil qilar ekan, shunday xulosaga keladi: «Voqealarni bayon qilish bu yodnomalarda an`anaga va she`riy formaga ega bo`lgan matnlardan iborat. Shunday taxmin qilish mumkinki, bayon qilish tsikli va uning 3 ta majburiy elementlari (boshlanma, mazmun taraqqiyoti, tugallanma) turli funktsiya bajaradi va hikoyaning izchilligini ta`minlaydi. Turkiy yozma va og`zak ijodda bayonning arxaik tipini gavdalantiradi. Uch funktsiyaning elementar izchilligi turkiy og`zaki va yozma ijodining ilk bosqichi uchungina emas, balki har qanday xalqning arxaik davri uchun harakterlidir».

I.V.Stebleva yodnomalarning arxaik davriga xos fol`klor-adabiy sistemasini to`g`ri payqagan. Yodnomalarning ba`zilari, jumladan, Kul tigin, Bilga xoqon, Ungin yodnomalari zachi nida arxaik davr eposi xususiyatlari saqlangan. Ungin yodnomasining zachini shunday boshlanadi:

Achumiz, apamiz Yamy qagan tort bulungug` qismysh, yig`mysh, yamysh, basmysh. Ol qen yoq boltuqta kasra al yitmish, ыchg`ынмыш (Ung., I) – Ota-bobomiz hoqon to`rt jihatdagi (xalq) ni ushlab turgan, birlashtirgan, tebratib, tinchitib turgan. U xon yo`q bo`lgandan keyin davlat yo`qolgan, qo`ldan chiqqan, tarqab ketgan.

Gap birinchi turk hoqonlaridan biri Bo`min haqida ketyapti. Bo`minning afsonaviy-epik ruhdagi faoliyati Kul tigin va Bilga xoqon yodnomasining zachinida ham bor. Bundan ko`rinadiki, Bo`min haqida ma`lum bir afsona yoki rivoyat bo`lganu, stereotip shaklda yodnomalar zachinida qo`llanavergan. Chunki afsona, rivoyatlar stereotip shaklda qo`llanaveradi. Hammasida ham «achum apam» degan izohlovchining qo`llanishi aynan Bo`min haqidagi afsonalarga yana bir qarra ishora qiladi.

Endi arxaik davrdagi fol`klorning mavjudligi haqida, bir tomondan, I.V.Stebleva dalillagan va universal harakterga ega bo`lgan bayon tsikli, ikkinchi tomondan, yodnomalarning zachinidagi afsonaviy-epik ruh darak beradi.

I.V.Steblevaning yuqoridagi fikri M.I.Stebelin-Kamenskiyning yozma adabiyotgacha bo`lgan davr adabiyoti haqidagi fikriga hamohang. Biz I.V.Stebleva ko`rsatgan bayonning arxaik tipini shartli ravishda fol`klor deb ataymiz. Qadimgi turkiy madaniy muhitini o`rganishda yodnomalar qanchalik ahamiyatga ega bo`lsa, epos va mifologiyani jalb qilish ham shunchalik zarur. Ular madaniyatning eng chuqur va arxaik qatlamini aks ettiradi.

Biz qadimgi turkiy adabiyotning genezisi haqida so`z yuritar ekanmiz. Eng avvalo motiv bilan birga, qadimgi turkiy tilda mavjud bo`lgan alohida so`zlarga ham tayanamiz. Muayyan ma`noda qadimgi turkiy tilning material jihatdan mukammalligi, ma`lum darajada ishlanganligi bu davrdagi adabiyotning tarixiy taqdiri haqida (qadimgi turk davrigacha va qadimgi turk davridagi holati) to`liq tasavvur beradi.

«Kitobi dada Qo`rqut», «O`g`uznoma» eposlaridagi ba`zi obrazlar, leksik birliklar semantik jihatdan qadimgi turkiy yodnomalardagi obrazlar va so`zlar semantikasi bilan umumiy. Bu esa qadimgi turkiy til eposlar bilan yozma adabiyot o`rtasidagi aloqalarning yuzaga kelishida qanchalik rol o`ynaganligini ko`rsatadi. «Kitobi dada Qo`rqut»ning uchinchi qo`shig`i «Xon bo`rining o`g`li Bamchi Beyrek haqida qo`shiq» deb ataladi. Xon Bo`ri ismi shunchaki qo`yilgan emas. Uning ostida albatta izohi bor. enisey yodnomalarida ham Chuchuk Bori sangun (ePT, 34) ismi bor. Har ikkisidagi Bo`ri ismi ostida mifologik tasavvur bor. Qadimgi turkiylarning (Ashin urug`ining) bo`ridan kelib chiqqanligi haqidagi mif ramzga aylangan. Yoki «Qutadgu bilig»dagi Oyto`ldi bilan «O`g`uznoma»dagi Oy hoqon ismi va enisey yodnomalaridagi oy kul`ti o`rtasida ham shunday bog`lanish mavjud. Mazkur qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy eposlardagi so`zlar, ismlar ma`nosidagi uzluksizlik, ya`ni mazkur obrazlarning davomiyligi qadimgi turkiy tilning asta-sekin takomillashishidan darak beradi. Qadimgi turkiy til uzluksiz bo`lib, uzoq davom etgan, shuning uchun bu davrdagi yozma

manbalardagi ko`pgina so`zlar (shu jumladan, umumiy bo`lgan totemistik obrazlar va ular ostidagi mifologik tasavvurlar, epitetlar, metafora va o`xshatish) umumiydir. Ba`zi syujetlarning umumiyliigi ham shular tufaylidir. Yoki boz (bo`z) at yodnomalarda ham, eposlarda ham, muvaffaqiyat, yaxshilik belgisi sifatida qo`llanadi. M: Kul tigin yodnomasi ar boz rangdan (bo`z er), Kul tigining oti boz at (bo`z ot)dir. Bo`z er odamzodni yuzaga keltiradi. Kul tigining bo`z oti esa har doim unga kengda g`alaba keltiradi. «Kitobi dada Qo`rqut»da ham Bamsi Beyrek bozirgonlar (savdogarlar)ni kofiyalar hujumidan qutqarib qoladi. Ular Bams Beyrekka bo`z ayg`irni sovg`a qiladilar, Qo`rqut ota yigitga Bamsi Beyrek ismini berganda, unga bo`z ayg`irli degan sifatni qo`shib aytadi: «Buning oti bo`z ayg`irli Bamsi bo`lsin. Bo`z epiteti avvalo erning paydo bo`lishiga bog`lanadi. Endi bu epitetning, umuman, hamma doimiy epitetlarning yodnomalarda asosan qahramon yoki ob`ektning biror sifatini tasvirlashi epik uslubni keltirib chiqaradi. A.N.Veselovskiy epitetlarning epik uslubdagi roli haqida to`xtalib, unga alohida urg`u beradi: «Epitetlar tarixi poetik uslubning qisqargan nashri tarixidir». Bundan anglashiladiki, epitetlar epik uslubning taraqqiyotida eng muhim vositasidir. Boz epitetining yodnomalarda, «Dada Qo`rqut kitobi»da qo`llanishidan ham uning epiklikni keltirib chiqarishida muhimligi ko`rinib turibdi. Epitetlarning mifologik tasavvurlar bilan bog`liqligi ham ana shu epiklik tufaylidir.

Turkiy yozma adabiyotga ma`lum darajada asos bo`lgan afsona va rivoyatlar, undagi obraz va motivlar, ayniqsa so`zning (epitetlar, o`xshatish) magik funktsiyasi progress uchun xizmat qiladi. Bunday takrorlarning mazmuni va o`ziga xos vazifasi bor, ular ma`lum bir odatlar bilan bog`liq bo`lganligi uchun ham yodnomalarda va eposlarda an`anaviy tarzda davom etavergan. Ba`zi hollarda takrorlash faqat zaruriyat emas, balki maqsad, butun kommunikativ aktning mazmuni bo`lib xizmat kiladi. Eng avvalo bu takrorning matndagi bajarayotgan vazifasiga bog`liq bo`ladi. Ma`lumki, ilk tarixiy eposlarda estetik vazifa ustidan magiya va marosimlarning vazifasi hukmron edi. Ammo merosi vaqt o`tishi bilan o`z mazmunini yo`qotadi. Yodnomalarning shakllanishiga manba bo`lgan badiiy vositalar, obrazlarning

ostida, albatta, magix vazifa bor. Magik vazifaning yo`qolishi keyingi hodisa. So`zning magik vazifasi yodnomalarda keng: ideallashtirish, urf-odatlar va h.k.

Kul`t elementlarining takrorlanishi kadimgi turkiylarda uzluksiz jarayon. Zotan muhim bo`lgan, turmushda mustahkam o`rnashgan perdmel, belgi va hokozolar takrorlanishga moyil. M: yag`iz yar, alp qag`an, to`rt bulung kabilarning takrorlanishi va bir yodnomalardan ikkinchisiga o`tib yurishi eng avvalo epitetlar ostidagi ideallashtirish va undan ham ilgari mavjud bo`lgan mifologik mazmundan kelib chiqadi. Ana shu takrorlanish tufayli ham yozma adabiyotda epos rudimentlari qayta tiklanadi. «Odam yoki umuman jamoa ongida olam kartinasini doimiy ravishda ideallashtirishga talabning mavjudligi» arxaik davr fol`klarining qadimgi turkiy adabiyotda davom etishiga bir zamin yasaydi.

«Devonu lug`atit-turk» va enisey yodnomalaridagi jang epizodlari bir-biriga syujet va motiv jihatidan uyg`un keladi. Chunki «Devon»dagi to`rtliklar «islomdan oldingi O`rta osiyo xalqlarining eposi»¹ga aloqador. Fitratning ko`rsatishicha, bu asardagi to`rtliklar milodiy VI-VII asrlarning adabiy materiallaridir².

Hatto qadimgi turkiy adabiyot an`analari qoraxoniylar davri adabiyotiga ham uzluksiz ravishda o`tgan. Jumladan A.Bombachi qadimgi turkiy adabiyot bilan «Qutadg`u bilig» o`rtasidagi aloqani ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog`laydi: «Turkiylar uchun islomgacha bo`lgan davrdan islomga o`tish birdaniga bo`lmagan edi. An`ananing uzluksizligi qoraxoniylar adabiyotlar yaqqol kuzatiladi. Til ilgari qanday bo`lsa,

shundayligicha qoldi». Bundan tashqari, xuddi «Qutadgu bilig» singari, «Devonu lug`atit-turk»da ham qadimgi turkiy til davom etganligi uchun yodnomalar va «Devon» uslubida yaqinlik kuzatiladi: «Devon»dagi she`rlar uslubini qadimgi epigrafika uslubini eslatadi: diqqatni betafsil voqealarga jalb qilishga intilish bor, to`rtliklarda voqealar dinamizmining yig`iq bayoni beriladi. M: hayvonot uslubini eslatadigan it va bo`rining olishuvi tasvirida shu xususiyat bor:

Itim tutub qodы chaldi,

Ваны алыб qodы салды,

¹ Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Т., 1981. 88-бет.

² Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Т., 1927. 7-бет.

Аның тусин оира yoldы.

Бог`ыз алыб тукal bog`ды.

«Itim (uni) ushlab (oyog`idan) oldi. Boshini ushlab, erga yotqizdi. U (it) uning terisini shilib oldi. Bo`g`izidan olib, oxiri bo`g`di».

Hayvonot uslubi jihatidan uyg`unlikni «Devon» bilan Irq bitigi o`rtasida ham ko`ramiz.

Adug`li tonguzli,

Art uza soqyishmysh armish,

Адыг`ы qарны уоqыmysh,

Tonguzung azug`ы сынmysh tir,

Ancha bilig: yabloq ol.

Ayiq bilan to`ng`iz tog ustida to`qnashgan ekan, ayiqning qorni yorilgan, To`ng`izning tishi singan der. Shunday bilinglar: yomondir bu.

Gap «Devonu lug`atit-turk»dagi tasvirning yodnomadagi tasvirga uyg`unligi haqida ketar ekan, yana Fitratga murojaat etamiz. U mazkur asarida «Devon»dagi bir necha epik asarlarni tiklaydi, ular tasvir harakteri, ruhi, poetik jixatlari, tasvirlangan voqealar mazmuni jihatidan xalq eposiga taalluqli ekanligi sezilib turadi.³ Fitrat «Devon»dagi to`rtliklarni mazmuniga ko`ra, 15 bo`limga guruhlaydi. Biz bu o`rinda VII (tangut begining urushi), VIII (uyg`urlar bilan urush), XIII (uch urushi), XII (Bir urush) yalimlardagi to`rtliklarning yodnomalardagi parchalarga faqat g`oya va mazmun tomondan emas, balki tarixiylik nuqtai nazaridan ham yaqinligini ta`kidlamoqchimiz.

«Tangut begining urushi» deb nomlangan bo`limdagi to`rtliklarda (8 ta to`rtlik) jang manzarasi tasvirlangan, hamma epizodlardagi tarixiy voqealar esa qadimgi turk hoqonligi davrida yuz bergan:

Qatun sini jig`iladi,

Tangut bagin yag`yladi.

Qаны аг`ыb jag`yladi.

³ Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Т., 1981, 39-бет.

Оуын smuvin qyзыл sag`ды.

«Katun sini» qabilasi qichqirishib, g`ulg`ula solib, Tangut begiga dushman bo`ldi, urush ochdi, (natijada) bo`yindan qizil suv sog`ilgan kabi bo`lib, qoni vijillab oqdi.

Endi Bilga xoqon yodnomasidagi Tangutlar bilan bo`lgan jang epizodiga to`xtalaylik:

Yati yigirmi yashyma Tangut topa suladim. Tangut bodunug` buzдым, og`lun, yutuzun, yilqысым, барымын anta altым.

- O`n etti yoshimda Tangutga lashkar tortdim. Tangut xalqini engdim, o`g`lini, xonumonini, yilqisini, molini ushanda oldim.

Bu voqealar VIII asrning boshlari – taxminan 702 yillarga to`g`ri keladi. Har ikki parchaning umumiy mazmunidan tashqari, tayanch so`z (tangut)ning ishtirok etishi ham ikki parchaning genezisini belgilaydi. Ammo «Devon»dagi to`rtliklardan aynan yodnomalardagi singari voqealarni axtarib bo`lmaydi, chunki bu to`rtliklar xalqniki, ya`ni xalq qo`shiqlari singari yuzaga kelgan. Quyidagi parchalarda ham shu xususiyat bor:

Tangut susin ushuqladi,

Kishi ishin elikladi.

Aran atым balqiladi,

Bulun bolup bashны тыг`ды.

Tangut qo`shinini sovuqda bosdi. Bu ishi bilan erkaklar ishini mashara qildi. Bosqinda barcha er ham otlarni har kimga bo`lakladi (hadya qildi). Oxirida o`zi asir bo`lgach, boshi kesildi.

Tangut ханы yubildi,

O`lim birla tubuldi,

Qazashlari tabladi.

O`lum ko`rib yuzi ag`ды.

Tangut xoni uni boshdan aldadi-da, so`ngra o`lum bilan tepaladi, engdi, qarindoshlari uning bu engilishidan orlandilar. Chunki o`limni ko`rgach, uning yuzi oqargan edi.

Mazkur to`rtliklarda jang tasviri, qahramonlarning xatti-harakatlari, holati batafsil tasvir etilgan. Chunki epik bayon bilan birga naturalistik tasvir printsipli fol`klor uchun, ayniqsa doston uchun karakterli xususiyatdir. Bu bo`limdagi qolgan parchalarda ham xuddi shu printsipl etakchi.

Yoki quyidagi to`rtlik ham motiv va syujet jihatidan To`nyuquq. Kul tigin yodnomasidagi aksariyat jang epizodlarini gavdalantiradi, bunday holatda tayanch so`z emas, balki umumiy ruhning o`zi har ikki yodnomadagi parchani solishtirish uchun imkoniyat beradi:

Arat alpy uqushtilar,
 Qыng`ыр kozun baqishtыlar,
 Qamug` tutup toqushtilar,
 Qылыч кыng`а kuchin сыqды.

Erlar, botirlar bir-birlarini kurashga undadilar. Bir-birlariga yon ko`z bilan yomon qaradilar. Butun yaroqlari bilan urushga kirishdilar. Qilichlarning qinga kirishi qiyinlashdi.

Ko`rinadiki, qadimgi turkiy yodnomalar bilan «Devon»dagi to`rtliklar mazmunan inkor qilib bo`lmaydigan darajada o`xshash.

Demak, «Devon»dagi to`rtliklar qadimgi turk davrida shakllangan va ularga qadimgi turk davridagi tarixiy voqealar zamin bo`lgan ekan, bizningcha, yuqoridagi parchalarni tarixiy ko`shiqlar janriga mansub deb qarash kerak.

Qadimgi turkiy yodnomalar va turkiy eposlar o`rtasidagi

g`oyaviy-estetik adaptatsiya

Yuqoridagi qadimgi turkiy yodnomalar va turkiy eposlardan keltirilgan parchalarda g`oyaviy-estetik adaptatsiya (ya`ni formal tomondangina emas, balki g`oyaviy jihatdan ham bir-biriga mos kelishi)ni kuzatish mumkin. Bunday holatda ham alohida so`z emas, balki tavsif bosh o`rin tutadi. Fol`klor syujeti va motivlari yodnomalarga o`tganda, yodnomalar ba`zi fol`klor syujeti va obrazlarining shakllanishiga ta`sir ko`rsatganda, odatdagi, o`quvchi va tinglovchiga yaqin bo`lgan shakllar tanlab olinadi. Bunday epizodlar xakas, oltoy afsona va eposlaridan tashqari, «Manas» da ham uchraydi. Masalan, yodnomalarning

ko`pchiligida qadimgi turkiylarda keng tarqalgan odatga ko`ra, xoqon yoki lashkarboshi qaysi mamlakatlardan qanday sovg`a keltirdi, yodnoma qanday qilib, kim tomonidan, o`rnatildi – hammasi batafsil bayon etiladi. Bu ham g`ira-zshira taassurot (reministsentsiya)lar natijasi va adaptatsiyaga tayanadi. Kul tigin yodnomasining oxirida shunday epizod bor.

Yoki «Manas» eposi bilan yodnomalar o`rtasidagi g`oyaviy adaptatsiyani yana turkiylarning xitoylarga qaram bo`lib qolishi haqidagi epizodlarda ko`ramiz. Kul tigin yodnomasida turk xalqining xitoylar asorati ostida chekkan azob-uqubatlari shunday tasvirlanadi: Qag`anladuq qaganым yitiru ыdмыс. Tabg`an bodunqa baglik urы og`lyng qul bolты, siliq qыз og`lyng qung bolты, turuk baglar turuk атым ыты Tabg`ach атым tutыpan, tabg`ach qaganqо kormis, alig yil isig kuchig barmis. – Turk xalqi xoqonlik qilib turgan xoqonni yo`qotib yubordi. Tabg`ach xalqiga bek bo`ladigan o`g`il bolasi bilan qul bo`ldi, suluv qizi bilan cho`ri bo`ldi. Turk beklari turkcha otini tashlab, tabg`ach beklarining tabg`achcha otini qabul qilib, tabg`ach xoqoniga qaram bo`ldi. Ellik yil mehnatini, kuchini beribdi.

«Manas»dagi ana shunday motiv aks etgan parchani olib kuraylik:

Qalin qirg`iz elining
 O`tovlarin qiyratib,
 Kelin-qizin yig`latib,
 Alosh degan xon chiqmish,
 Haybatidan jon chiqmish.
 Qarshi turur jon qolmay,
 So`zga ham darmon qolmay,
 Oliq-soliq soldi ko`p,
 Og`ir kun tushdi joniga,
 Qarshi so`zlab qo`yganni,
 Bo`yadi o`z qoniga,
 Qalmoq, Xitoy, Manshu yurt
 Qahrin sochib o`z oldi.

Garchi «Manas»ning «Ulug` safar» qismi eramizning VII-VIII asrida yaratilgan bo`lsa ham (M.Avezov, Berishtam, A.N.fikricha), mazkur epizodlar o`rtasida genetik birlik bor degan da`voni qo`ymoqchi emasmiz, balki g`oyaviy-estetik adaptatsiya bor. Bunday jarayonning qadimgi rus adabiyoti bilan fol`klori o`rtasidagi munosabatda ham kuzatish mumkin. V.P.Adrianova-Peretts tarixiy voqelik, voqealarning baholanishi va shaxslar yozma adabiyot bilan xalq ijodi o`rtasidagi qarindoshlikni belgilovchi asosiy belgilardan biri ekanligini uqtiradi.

Yodnomalar va eposlar o`rtasidagi g`oyaviy-estetik adaptatsiya ham epik an`anaviylikka olib keladi. Epik an`anaviylik esa o`z navbtida har ikki sistema uchun «formula uslubi»ni hosil qiladi. Ammo «formula uslubi» degan atamani bir asardan ikkinchisiga ko`chib yuradigan hodisa sifatida baholash xatodir. Formulaga berilgan ta`riflar orasida D.S.Lixachyovning ta`rifi kengroq mazmunga ega bo`lib, bu uslubning deyarli hamma turini qamrab oladi. D.S.Lixachyov syujet, motiv, til formulasini ajratadi. Uning «san`at hayotni tasvirlabgina qolmaydi, balki unga etiket shaklini beradi», degan fikrni keng tarqalgan. Bu fikr g`oyaviy-estetik adaptatsiya tufayli hosil bo`ladigan formulalar uslubiga tegishlidir.

Sementik printsiptga asoslangan formulaning bir turi jang formulasidir. Kul tigin yodnomasi va «Manas»dan keltirilgan yuqoridagi parchalar shunga misol bo`la oladi. Yoki «Dada Qo`rqut kitobi»dagi «Salor Qozon uyining tor-tor qilinishi» haqidagi qo`shiqdan bir jang epizodiga diqqat qilaylik: «O`sha kuni dahshatli jang kuni edi, maydon kesilgan boshlar bilan to`la edi uchqur otlar xuddi koptokdek sakrar edilar, ularning tuyog`i kamaydi... po`lat qilichlar bilan urdilar, uning temir uchlari o`tmaslashdi. U kun qo`rqinchli kun edi, bek o`z navkaridan ajraldi, navkar o`z bekidan». Har bir harakat, hodisa ijrochining diqqat markazidan chetda qolmagan. Ijrochi naturalistik kuzatishga e`tibor bergan. Tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun emotsional bo`yoq, tantanavor uslub kiritiladi. Endi Bilga xoqon yodnomasidan bir parchani O`g`uz eposidagi parchaga solishtirib ko`rsak, semantik uyg`unlikni ko`ramiz:

Boluchuda sungushdimiz, qag`анын, yzbg`usin, shadyн anta olurtum, alin anta altым. Otuz yashыma Bas balыq tара suladim Altы yоly sungushdim. Susin

qop olurdim – Bo`luchuda jang qildik, xoqonini, yabg`usini, shadini o`shanda o`ldirdim. Davlatini o`shanda oldim. O`ttiz yoshimda Beshbaliq tomonga lashkar tortdim.

Tamg`uduyq bashda sungushdym, qarluq bodunyg` olurтым, anta altым... Qarluq bodunyg` anta sanchdym, olurтым – Tamg`iduyq bashda jang qildim. Qarluq xalqini o`ldirdim, o`shanda qo`lga oldim... Qarluq xalqini sanchdim, o`ldirdim.

Mazkur epizodlarda semantik yaqinlik bilan birga, formal tomondan farq ham bor. Farq shundaki, «Dada Qo`rqut kitobi» da naturalistik tasvir kuchli, shu sababli emotsionallik ham kuchli. Bilga xoqon yodnomasida esa naturalistik tasvirdan ko`ra, tarixiylik printsipli kuchli.

Har ikki manbadan olingan parcha formula usulbi (asosan semantik printsiplga asoslangan formula uslubi) tufayli kesishadi, deb e`tirof etish mumkin. Bundan g`oyaviy-estetik adaptatsiya, funktsional munosabat bir-biri bilan aloqada bo`ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

G`oyaviy-estetik adaptatsiyaning formula uslubini hosil qilishini Irq bitigining shakllanishida ham ko`rish mumkin. U ma`lum bir janrning o`ziga xos ko`rinishini hosil qilgan. M: «Turkiylar madaniy muhitidan o`rin olgan Fol kitobining paydo bo`lishi ham, bir tomondan, ijtimoiy turmush (folbinlikning paydo bo`lishi, uning keng omma o`rtasida tarqalishi, folbinlar so`zining omma orasida yoyilishi va h) bilan bog`liq bo`lsa, o`sha folbinlarning og`zaki nutqi alohida bir adabiy janrdan (ya`ni fol`klor janridan – N.R.) iborat bo`lgan». Og`zaki nutqning Irq bitigida ham aynan shu janrni hosil qilishini adaptatsiyaning eng mukammal ko`rinishi deb baholash lozim. A.Fon Gaben bu jarayonni yana shunday izohlaydi: «Madaniyat taraqqiyotining ilk bosqichida folbinlarning bayoniga katta ahamiyat berilgan bo`lsa kerak. Bunday bayon mutlaq aniqlikka va esda qoladigan darajada etmaguncha og`izdan-og`izga o`tkazilavergan va silliqqlangan, shuning uchun folbinlar bayonini kelgusi avlodlar meros qilib oldilar. Biroq moniylik va buddizm paydo bo`lishi bilan talablar ko`p tomonlarga bo`la boshladi, bayonni qabul qilishda bora-bora shaklga e`tiborsizlik bilan qaray

boshladilar, hamma «karomat»lar dindor odamlar qo`liga tushdi. Budda matnlaridagi sehrli hikmatlar esa tarjima qilinmadi». Budda matnlarining tarjima qilinmaganligi biz uchun ahamiyatsiz. Bu o`rinda g`oyaviy-estetik adaptatsiya tufayli ma`lum bir janrlarning shakllanishini alohi da qayd qilish kerak.

Umuman olganda, yodnomalardagi badiiy to`qima ham epizodlarning fol`klorlashtirilishi tufayli bo`lib, formula uslubi negizida hosil bo`ladi. G`oyaviy-estetik adaptatsiya yodnomalar va eposlardagi umumiy ruhni hosil qiladi. Ammo genetik birliklarni g`oyaviy-estetik adaptatsiya natijasi bo`lgan o`rinlardan axtarib bo`lmaydi, aks holda har qanday analogik hodisalar ham genetik birlik sifatida o`qilib, ko`pgina chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

QADIMIY TURKIY ADABIYOTDA JANRLARNING PAYDO BO`LISHI VA TARAQKIYOTI

Qadimgi turk va ilk klassik davrdagi adabiy jarayon janrlar spetsifikasi tufayli ham o`ziga xoslik kasb etadi. Qadimgi turkiy adabiyotdagi janrlar sistemasini diqqat bilan o`rganish jarayonida nafaqat adabiy-tarixiy taraqqiyot, balki arxaik so`z san`atiga va buning asosida yotuvchi ritual ma`nolarga oid masalalarni hal etish mumkin bo`ladi. Masalan: qadimgi va ilk klassik davrdagi, shuningdek, «Devonu lug`atit-turk» dagi ba`zi janrlarning (m.qo`shiq) an`anaviy tarzda davom etishini va bu an`anaviylikning sabablarini qadimgi turkiy adabiyotdagi janrlarni o`rganish orqali aniqlash mumkin.

Qadimgi turkiy adabiyotidagi janrlar xususida so`z yuritilganda, hozirgi janrlar xususidagi tasavvurlardan bir oz chekinishga to`g`ri keladi. Aks holda qadimgi turkiy adabiyotidagi janrlarning genezisi, spetsifikasi xususida to`laqonli fikr yuritish imkoni bo`lmaydi.

Urxun yodnomalaridagi janrlarning paydo bo`lishi tashqi faktorlarsiz amalga oshiriladi, bu qadimgi davr uchun normal holatdir.

Har bir davrdagi janrlar o`ziga xos sistemani tashkil qiladi. D.S.Lixachyovning fikricha, har bir davrdagi janrlar sistemasi va ularni o`rganishga e`tibor berish kerak bo`lgan tomonlar quyidagilardan iborat bo`lmog`i lozim:

«Janrlar adabiy taraqqiyotning har bir darida adabiyotdagi o`zgaruvchan (aktorlar yig`indisi ta`sirida ajralib chiqadi, turli belgilarga asoslanadi, adabiyot tarixi oldida maxsus vazifa turadi: faqat janrlarning o`zini emas, balki janrlarga bo`linish printsiplarini o`rganish kerak, shuningdek, alohida janrlar va ularning tarixini emas, balki har bir davrdagi janrlar sistemasini o`rganish kerak. Haqiqatda, janrlar bir-biriga bog`liq bo`lmagan holatda yashaydi, tarixiy jihatdan ma`lum sistemani tashkil qiladi».

Qadimgi turkiy adabiyotda o`zgarib turuvchi faktorlarning yig`indisi asosida hosil bo`ladigan janrlar va ularning turli belgilari nimalarda ko`rinadi? Masalan aytaylik, ertak janri elementlari afsona janrining o`zgarishi, ya`ni yo`qolib borishi natijasida paydo bo`lgan va yodnomalarda afsona janrining izlari saqlanib qolgan. Bu yodnomalarning (asosan yirik urxun yodnomalarining) butun matn qyirilishida uchraydi, lekin alohida janr sifatida emas. Zotan ana shu o`zgaruvchan faktorlar, u qay darajada bo`lmasin, har bir davrdagi janrlar spetsifikasini belgilaydi. Yoki «Qutadg`u bilig»da ham ertak janrining (Oyto`ldining eligini izlab safarga chiqishi va uning sarguzashtlari) elementlari o`zgaruvchan faktorlar (obrazlarning funksional o`zgarishi) yoki motiv yoki syujetlarning davrga va sharoitga qarab o`zgarishi natijasida XI asr adabiy janrlar sistemasida alohida o`ziga xoslik kasb etadi. Zotan ana shu o`zgaruvchan faktorlar, u qay darajada bo`lmasin, har bir davrdagi janrlar spetsifikasini belgilaydi. D.S.Lixachyov janrlarni davrlar byayicha o`rganishni takldif qilganda, tamomila haq. Chunki bir davrdagi janrlar an`anaviylik kasb etib, boshqa bir davr adabiyotiga o`tganda ham, baribir aynan o`tmaydi, ma`lum darajada (ko`proq struktura jihatidan) o`zgarishga uchraydi. Har bir davr adabiyotida turli faktorlar janrlar o`zgarishiga sabab bo`ladi. Shuning uchun avvalo janrlar genezisini o`rganish ma`lum bir maqsadni ruyobga chiqarishi mumkin. Qolaversa, janrlar ham jamiyatning umumiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog`liq. Eng qadimgi davrdagi – yozma adabiyotgacha bo`lgan davrdagi fol`klor janrlari sistemasi ko`chmanchi qabilalar jamiyati talablarini qondirishga mo`ljallangan bo`lsada, ammo unda (fol`klorda) moniyilik va islom dini talablariga mos janrlar yo`q edi, shuning uchun rivojlangan feodal davlati talablariga mos

janrlar yaratish lozim edi. Qadimgi turk davridagi tarjima adabiyotlari, jumladan, xristianlik adabiyoti namunasi bo'lgan «Xuastuanift», budda adabiyoti namunasi bo'lgan «Oltun yoruq» va h. qadimgi turkiy adabiyotning janrlar sistemasi talablarini ma'lum darajada to'ldirgan. Shu o'rinda O.M.Freydenbergning diniy oqimlarning adabiyotdagi funktsiyasi haqidagi fikrini keltirib o'tish joizdir. U grek mifologiyasining adabiy jarayondagi funktsiyasiga to'xtalar ekan, shunday deydi: «Antik davrda dinning funktsiyasi adabiyotga nisbatan butunlay boshqa konstruktiv harakterga ega... U ma'lum darajada adabiy janrni shakllantirdi».

Bayon qilish texnikasi. Epik formulalar.

Yodnomalar epik formulalarni quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1. Bayonni harakatga keltirish uchun foydalaniladigan alohida frazalar; 2. Bir xil hodisalarni tasvirilaydigan qatorlar gurhi; 3. Atributiv formulalar. Mazkur klassifikatsiya o'z navbatida yana yodnomalarning matn qyirilishiga muvofiq, bir necha guruhlariga bo'linadi. M: ikkinchi guruhga yordamchi formulalar, xabar formulalari xos. Yordamchi formulalarga enisey yodnomalaridagi адығылым va urxun yodnomalaridagi isig kuchig xos. bU tayanch so`z kompozitsion vazifani ham bajaradi.

Epik formulalar shakl jixatidan ham, mazmun jixatidan ham o`ziga xoslik kasb etadiki, bu hodisani epik klishe yoki o`rinlar bilan bir deb qarab bo`lmaydi. Epik formulalar yodnomalarda variatsiyalashgan yoki aynan takrorlangan. Lekin o`sha formula mazmunan bir-biriga juda yaqindir. Bu yaqinlik epik formula tarkibidagi tayanch so`zga asoslanadi. «Odat» tusiga kirgan ijro etish san`ati (ayniqsa eposlarda bu xususiyat kuchli), «tartiblilik» eposlarda qancha muhim bo`lsa, yodnomalarda ham xuddi shu xususiyat bor. Ayniksa enisey yodnomalari ana shu xususiyatni o`zida to`liq mujassam etadi.

Yodnomalar mualliflari o`z ijodkorlik mahoratlarini namoyish qilishda faqat tarixning ma'lum repertuarlarini o`zlashtirib qolmaydilar, balki har qanday voqea tasvirida izchillikni, aossiy obrazlar harakteristikasini yodga oladilar. Bu hamma yodnomalarda ham keng tarqalgan usuldir. Chunki bu formulalar qadimgi turkiy

yodnomalargacha tayyor edi. Mazkur formulalarni tuzishda mualliflar o'z xotirasiga emas, balki analogiya printsipiga asoslanib tuzadi. Garchi To'nyuquq yodnomasi memuar janriga mansub bo'lsa ham, ba'zi epik formulalar bu yodnomada ham takrorlanadi.

Voqealar ob'ekti ham, motiv ham har ikki yodnomada bir, lekin epik ko'lam To'nyuquq yodnomasida kengroq. Voqealarga real tus berish maqsadida mazkur yodnomadagi har ikki voqea ma'lum bir detalga asoslanadi. Nutqdagi hal qiluvchi so'zlarga asoslanib keng mazmun yaratilgan. Otukan yar, Shantung balıq, ilgaru, ongraki, birgaru bariyaki, tag fe'lining bo'lishli va bo'lishsiz shakllari epik formula tarkibidagi tayanch so'zlardir. Takror epik formula hosiml qilganda, uning bu vazifasi, mazkur badiiy vositaning ritmik vazifasidan ko'ra, kengroq mazmun kasb etadi. tayanch so'zlar asosan mustaqil so'z turkumlaridan (yodnomalarda ot, son, ravish va fe'l ko'proq uchraydi) iborat. Agar xuddi shu tipdagi formulani eposlardan qidiradigan bo'lsak, unda epik formulalar eposlarda ham, xuddi yodnomalardagi singari, sistema hosil qilganligini ko'ramiz. «Yakka Ahmad» dostonidan quyidagi parchani olib ko'raylik:

Ot chopilar baland tog`ning pastiga,
 Quloq soling gapimning payvastiga.
 Ernazardan duo olib Ahmadjon,
 Endi mindi tarlon otning ustiga
 Bulbul oshna bo`lar bog`ning guliga.
 Quloq soling chechanlarning tiliga,
 Ernazardan duo olib Ahmadbek,
 Mindi o`g`lon Tarlon otning beliga.

Voqealar ob'ekti va motivning birligi tufayli ko'p so'zlarni o'zgartirishga hojat bo'lmagan. Bayonda shablondan qochish maqsadida baxshi har ikki to'rtlikning birinchi misrasini va qolgan misradagi ayrim so'zlarni o'zgartirgan, xolos. O'zgartirilgan so'zlar ham sinonimik variantlardan iborat: gapimning payvasti // chechanlarning tili, otning usti // otning beli. Baxshining xotirasida an'anaviy va

standart syujetlar yig`indisi saqlanganligi uchun shunday epik formulalar kelib chiqadi.

Quyidagi To`nyuquq va Ungin yodnomasidan olingan ikki parchada ham shunday epik formulaning boshqacharoq formulasini ko`ramiz. To`nyuquq yodnomasida voqea To`nyuquqning o`zi ishtirokida yuz berganligi uchun bu parchadagi (o`zak syujetdagi) fe`l aniqlik maylida beriladi: To`nyuquq o`n o`q lashkariga qarshi hujumga tayyorlanar ekan, ular haqidagi butun tafsilotlarni bayon qiladi va shunday deydi: Irtish oguzug kacha kalimiz, kalmishi alp tadi. Туымды, tangri, Umay, ыдуқ yar sub basa barti arinch. Naka taz`rbiz okush tayin, naka qorqurbiz az tayin, na basьmalьm, tagalim tadim, tagdimiz, yadimiz – Irtish daryosini kechib keldik. (jangchilarning) kelgani qaxramon, deganlar. (Dushman) sezmedi. Tangri, Umay, muqaddas er-suv (vatan) dushmanni bosib bergan ko`rinadi. Nega chekinamiz ko`p deb, nega qo`rqamiz (o`zimizni) oz deb. Qani ustun kelaylik, hujum qilaylik, dedim. Hujum qildik, tor-mor qildik.

Bu parchadagi voqealar muallifga aniq ma`lum bo`lmaganligi uchun o`tgan zamon eshitilganlik fe`li qo`llanmoqda. Lekin motiv va syujet liniyasi, yuqorida ta`kidlanganidek, bir. Voqealarning Ungin yodnomasida siqiq berilishiga sabab, birinchidan, yodnoma hajmining kichikligi bo`lsa, ikkinchidan, To`nyuquq yodnomasi faqat To`nyuquqning faoliyatini ko`rsatishga bag`ishlangani uchun u haqdagi voqealar kengroq, batafsil hikoya qilishi tarbiyidir. Ungin yodnomasi esa Eltarish xoqonning yaqinlaridan biri Ishbara tamgan tarqanning otasi Eletmish Yabg`u va akasi Chur yuga sharafiga bitilgan va voqealar asosan shu shaxslar atrofida bo`lib o`tadi. Bunday almashtirishlar natijasida formulalar sistemasi kelib chiqadi, epik til va standart hodisalar uyg`unlashadi.

Stereotip so`z birikmalari va oborotlari og`zaki epik uslubni karakterlaydigan epik formulalar sifatida karalar ekan, buning uchun o`sha epik formulalarning ma`lum bir funktsiyasi – yo ritmik, yo semantik, yoki evfonik funktsiyasiga tayanib bu formula haqida hukm chiqarish mumkin. Epik formulalarning birinchi turi, ko`rib o`tganimizdek, so`z birikmalari shaklida ham, gap shaklida ham bo`lishi mumkin. Yana to`nyuquq va Ungin yodnomalaridagi parchalar qiyosiga

to`xtalamiz. Ungin yodnomasida yana o`tgan zamon eshitilganlik fe`li qo`llansa, To`nyuquq yodnomasida o`tgan zamon aniq fe`li qo`llanadi, har ikkisidagi bayon harakterini farqlovchi vosita fe`llardir: Turk bodun qanym bolmauyum, tabg`achda adygylyty, qanlanty, qanym qodur Tabg`achqa yana ichikdi – Turk xalqi xoni bilan bo`lmayin, tabg`achdan ayrildi. Xonlik bo`ldi. Xonini qo`yib yana tabg`achga qo`shildi (taslim bo`ldi).

OI qan yoq boltuqta, kasra al yatmish, ыchg`ынымыш, qachмыш arti – U xon yo`q bo`lgandan keyin davlat yo`qolgan, qo`ldan chiqqan, tarqab ketgan, (xalq) qochib ketgan ekan.

So`z birikmalari shaklidagi epik formulalar: bu turga yodnomalarda ko`p uchraydigan turg`un so`z birikmalari xos: isig kuchig` bar-, al, toru.

Yodnomalardagi epik formulaning ikkinchi guruhi – standart hodisalarni tasvirleydigan qatorlar guruhidir: bu formulalar ma`lum ma`noda birinchi guruhdagi epik formulalarni o`zida gavalantiradi. Bunday turdagi epik formulalar enisey yodnomalarida ko`p uchraydi: Siz alima, qunchuuyima, og`lanyma, bodunyma, sizima altмыш yashymda (adygylyty) (Uyuk Tarlak yodnomasi) – Quyda qunchuuyum, sizda og`lym, uyta sizima uyta boqmadim, adygylyty, kunim qadashym uyta adygylyty (Uyuk Turan). Quyda qunnomasi). Bodunuma, kunima, qadashyma adygylyty (Begra yodnomasi). Qadashym adygylyty, yuy quya qunchuuyum adygylyty, sakkiz og`lym adygylyty, yuy. Uyar bagimka adygylyty, uyar qadashymqa adygylyty (Chaqo`l yodnomasi). Inim achim uyta adygyly bardymyz, uyta, quya kishima uyta adygyly bardymyz (Chako`l yodnomasi). Qunchuuyum, qadashym adygylyty, bungka yag`yqa kirdim. Kuch kul qash adygylyty. Quyda qunchuuyumqa ...adygylyty, sizima ... (Oya yodnomasi). Sizima kun ay azydyma (Begra yodnomasi). Kok tangrida kun ay azydyma (Elegesh yodnomasi). Turk bodun uchun tun udymadym, kuntuz olurmatym. OI sabyg` asidip, tun udyсыqым kalmadi, kuntuz olursyqым kalmadi.

Takrorlanuvchi epik formulalar o`z-o`zidan mexanik ravishda yuz beradigan hodisa emas, balki «takrorlanadigan syujet sxemalari o`z asoslariga ko`ra mifologik semantika bilan zich bog`langan».

Agar mifologik semantikaga tayanmas ekan, har qanday epik formula takrorlanish xususiyatini yo`qotadi. Epik syujet tinglovchini ham, ijodkorning ham xotirasida mustahkam o`rin olmaydi.

X U L O S A

Qadimgi turkiy yodnomalarning turkiy eposlar bilan aloqasini o`rganish shuni ko`rsatadiki, qadimgi turkiy yodnomalar yozma adabiyot namunasi sifatida qadimgi turkiy eposlar bilan yaxlit sistema hosil kiladi. Bu xususiyat esa turkiy yodnomalarning organik ravishda turkiy eposlardan o`sib chiqqanligini ko`rsatadi. Turkiy eposlar yodnomalarning shakllanishida faqat estetik vazifa bajarib qolmay, balki g`oyaviy vazifa ham bajaradi va kadimgi turkiy adabiyotning tom ma`nodagi xalqchil adabiyot ekanligini ta`minlaydi. Shu sababli ham yodnomalarda realistik va romantik tasvir uyg`unlashadi.

Yodnomalarning ritmik qurilishi shuni ko`rsatadiki, qadimgi turkiy epik an`ana yodnomalarning g`oyaviy yo`nalishiga ta`sir ko`rsatishi bilan birga formal tomoni – ritmik qurilishiga ham o`z ta`sirini o`tkazgan.

Ritmik – sintaktik parallelizm yodnomalarda ham, turkiy eposlarda ham umumiy, bu turkiy epik she`ning qadimgi turk davrida shakllana boshlaganligini ko`rsatadi.

Ammo yodnomalarda hali tom ma`nodagi epik she`rga xos qofiya yo`q, balki ritmik nasrga xos bo`lgan, aynan ritmni keltirib chiqarishga mo`ljallangan leksik takror, saj` va h. badiiy san`atlar bor. «Dada Qo`rqut kitobi»dan olingan nasriy parchalar buning yorqin dalilidir. Qolaversa, o`zbek xalq dostonlarining nasriy parchalarida ham shunday ritmiklik kuzatiladi. Og`zakilikning davom etishi, garchi mukammal yozma adabiyot shakllangan bo`lsa ham, yodnomalarda yaqqol ko`rinadi. Saj`ning turli ko`rinishlari yodnomalarda o`z aksini topganligi shu hodisa – og`zakilikning davomiyligi bilan izohlanadi.

Mazkur vositalar qadimgi turkiy adabiyotning genezisida asosiy rol o`ynagan. Barcha badiiy – tasvir vositalari, obrazlar ostidagi magik funktsiya g`oyaviylikka xizmat qiladi. Ilk klassik davr adabiyotida qadimgi turkiy adabiyotning izlari borligi ham an`anaviylikning uzluksizligi bilan belgilanadi. Qadimgi turkiy tilning har ikki davrda ham umumiyliigi bu an`anaviylikka bir sababdir. «Devonu ulg`atit-turk»dagi she`riy parchalar bilan g`oya va mazmun jihatidan birligi ham og`zaki an`anaviylik bilan belgilanadi. Qadimgi turkiy

adabiyotdagi syujet, motiv, obrazlar hamma davrlarda ham g`oyaviylikni o`zida tashiganligi uchun an`anaviylikka moyil bo`lgan.

Qadimgi turkiy yodnomalardagi urf-odatlar ham yozma adabiyotning shakllanishiga kuchli ta`sir etgan. Bunday hollarda tarixiy dalillar, urf-odatlar, fol`klor motiv va syujetlari sinkretik harakter kasb etib, o`ziga xos mozaikani eslatadi. Yodnomalarning shakllanishida manba bo`lgan asosiy vosita-epos syujetlari va obrazlarining vazifasi yodnomalarni sof tarixiy asarlar deb xulosa chiqarishga imkon bermaydi.

Urf-odatlar zaminida shakllangan janrlar (yig`i, madh) o`zida fol`klor-adabiy janr xususiyatlarini gavdalantiradi. Chunki fol`klordagi barcha janrlar yodnomalarda ba`zan to`liq, ba`zan elementar ko`rinishda bor. Shuning uchun yodnomalarning tarixiy-qaxramonlik dostonlari sifatida shakllanishida ham, xuddi eposlardagi singari, kantilen asosiy rol` o`ynagan degan xulosaga keldik. Bu xususiyat yodnomalarning formal tomoniga taalluqlidir. Umuman, barcha janrlar yodnomalarda marosim bilan bog`langan. Mifologik tasavvurlarning yodnomalarda ham, turkiy eposlarda ham umumiylik shunday xulosaga olib keladiki, ramziy obrazlarning an`anaviyligi va eposlarda kam o`zgarishga uchrashi har ikki manbada ham semantik va funktsional jihatdan umumiylikka olib kelgan. Yodnomalardagi deyarli barcha ramziy obrazlar ostida yo mifologik tasavvurlar, yo kul`t yoki urf-odatlar yotadi. Afsonadagi obrazlar shunga ishora qiladi. Mifologik tasavvurlar, kul`t, urf-odatlarga tayangan ramziy obrazlar qadimgi ijodkorlar uchun dunyoqarash, olamni anglash mezonidir. Ayniqsa, sonlar ramzi bu jixatdan harakterlidir. Ular miqdor tushunchasidan chekinib, obraz darajasiga ko`tarilgan. Qadimgi turkiy ijodkorlarning olamni anglash mezoni ana shu sonlarida yaqqol o`z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abduqodir Inon. Tarixda va bugun shamanizm. Ankara, 1954.
2. E.M.Meletinskiy. Mif i istoricheskaya poetika fol`klora. 1987.
3. I.V.Stebleva. K rekonstruktsiy drevnotyurskoy religiozno-mifologicheskoy sistemy. Tyurk. Sb.1971.
4. N.Rahmonov. Ko`hna bitiktoshlar. T., 1991.
5. To`xliev B. «Qutadg`u bilig»ning poetikasi masalalari. // M.Ishoqov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, B.To`xliev. O`lmas obidalar (O`zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo`yicha tadqiqotlar).- Toshkent: Fan, 1989. 307-441 b.
6. Umarov E. «Qutadg`u bilig»dagi bir ibora tarixi. // O`zbek tili va adabiyoti.- 1970.№ 6, 64-66 b.
7. Umurqulov B. Yozma va og`zaki nutqda so`z. // O`zbek tili va adabiyoti.- 2002.№ 2,64-66 b.
5. Fazilov E. I. Jlekcika "Kutadgu bilig" v Drevnetyurkskom slovarе. // Sovetskaya tyurkologiya.- 1970, № 4, s. 48-56.
8. Fedorenko N.T., Sokol`skaya L.I. Aforistika.- Moskva: Nauka, 1990.S.
9. Xayrullaev M.M. O`rta Osiyoda ilk uyg`onish davri madaniyati. O`rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot (uyg`onish davri madaniyati).- Toshkent: Fan, 1994, 44 b.
10. Xo`janova G. Maqol, badiiy matn va ifoda. // O`zbek tili va adabiyoti.2000.№ 3,-B 42-44.
11. Xo`janova G. «Hibat ul-haqoyiq» haqiqatlari. Toshkent. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2001.- 112 b.
12. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun al-baloqa. Nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov, // O`zbek til va adabiyoti.- 2002.№ -B 91, davomi 2002. № 5 -B 85.
13. O`zbek xalq og`zaki ijodi K. Imomov, T. Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov .- T.: O`qituvchi, 1990, - 94-b.
14. O`zbek xalq maqollari Nashrga tayyorlovchilar: M.Afzalov, S.Xudoyberganov, S.Ibrohimov. -T.: O`zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. – 168-b.
15. O`zbek xalq maqollari.Tuzuvchilar: B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Madrahimova. T.: Fan, - 1981, 354 b.
16. A. fon Gaben. Drevnetyurkskaya literatura. // Zarubejnaya tyurkologiya. Выпуск I. // Drevnie tyurkskie yazyki i literatury. M: Nauka, 1986. s. 297.
17. Drevnetyurkskiy slovar`. L.: 1969, s 439.
18. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. - Toshkent: G`.G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1972.
19. A.Qayumov. O`rxun-enisey bitiklari. // O`zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 1 tom. Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha.